INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

ATROF-MUHITGA TRANSCHEGARAVIY ZARAR YETKAZGANLIK UCHUN XALQARO-HUQUQIY JAVOBGARLIK

Rustamova Fariza Shavkat qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti
2-kurs talabasi
E-mail: rustam8vafar1za@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotning maqsadi atrof-muhitga nisbatan o‘rnatilgan ekologik standartlarning buzilishi oqibatida unga nisbatan yetkazilgan zarar uchun davlatlarning xalqaro javobgarlik masalalarini va sanksiyalar tizimining zaif tomonlarini, shuningdek, huquqiy manbalar va sud amaliyotini tahlil qilishdan iborat. Maqsadga erishish uchun qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, formal-yuridik metod va “keys-stadi” (case study) kabi umumiy va maxsus ilmiy metodlardan foydalaniladi. Tadqiqot natijalari transchegaraviy ekologik zarar holatlarining ko‘payib borayotgani sharoitida xalqaro huquqda ekologik xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: atrof-muhit, transchegaraviy zarar, xalqaro huquqbuzarlik, xalqaro-huquqiy javobgarlik, “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyili, davlat javobgarligi.

Аннотация: Цель данного исследования заключается в анализе вопросов международной ответственности государств и слабых сторон системы санкций за причинённый окружающей среде ущерб вследствие нарушения установленных экологических стандартов, а также в изучении правовых источников и судебной практики. Для достижения цели используются общие и специальные научные методы, такие как сравнительно-правовой анализ, системный подход, формально-юридический метод и кейс-стади (case study). Результаты исследования показывают необходимость совершенствования механизмов обеспечения экологической безопасности в международном праве в условиях увеличения случаев трансграничного экологического ущерба.

Ключевые слова: окружающая среда, трансграничный ущерб, международное правонарушение, международная правовая ответственность, принцип «загрязнитель платит», ответственность государства.

Abstract: The purpose of this study is to analyze issues of international responsibility of states for damage caused to the environment as a result of violations of established environmental standards, the weaknesses of the sanctions system, as well as relevant legal sources and judicial practice. To achieve this objective, general and special scientific methods such as comparative legal analysis, a systemic approach, the formal-legal method, and the case study method are employed. The results of the study demonstrate the necessity of improving mechanisms for ensuring environmental security in international law in the context of the increasing number of cases of transboundary environmental damage.

Keywords: environment, transboundary damage, international wrongful act, international legal responsibility, “polluter pays” principle, state responsibility.

1. Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida atrof-muhitga transchegaraviy zarar yetkazilishi xalqaro munosabatlarning eng muhim va dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi, chunki ekologik muammolar davlat chegaralari bilan cheklanmaydi. Atmosferaga turli xil zararli moddalar chiqarilishi,

suv resurslaridan nooqilona foydalanish va yadro avariyalari, nafaqat, alohida bir davlat hududiga, balki qo‘shni davlatlar hamda butun mintaqaga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Sanoat jarayonining shiddat bilan rivojlanayotganligi, ekologik standartlarga rioya etmaslik va buning ustidan bo‘lgan davlat nazoratning sustligi muammoning dolzarbligini oshirib, transchegaraviy zarar holatlarining ko‘payishiga olib kelmoqda. Davlatlar o‘rtasidagi ekologik nizolarning ko‘payishi, xalqaro huquqda ekologik xavfsizlikni ta’minlash rolini kuchaytirmoqda.

Asosiy qism

2. Transchegaraviy zarar va xalqaro-huquqiy javobgarlik

2.1 Transchegaraviy zarar tushunchasi

Ushbu mavzu tahlil qilinishi uchun avvalo, asosiy tushunchalarga izoh berib o‘tiladi. BMTning “Transchegaraviy zararlarning oldini olish to‘g‘risida”gi hujjatiga asosan, xalqaro huquqda “zarar” deb shaxslar, mulk va atrof-muhitga yetkazilgan zarar tushuniladi. Demak, zarar to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson hayoti va soglig‘iga bo‘lmasa ham, lekin atrof-muhitga yetkazilgan zarar inson sog‘lig‘iga ham ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi.

Transchegaraviy zarar tushunchasiga keladigan bo‘lsak**, transchegaraviy zarar** – bir davlat yurisdiksiyasi yoki nazorati ostidagi hududiga, umumiy chegara bo‘lish yoki bo‘lmasligidan qat’iy nazar, ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan davlat tomonidan bevosita yoki bilvosita qilgan zarari hisoblanadi[1]. Ya’ni, ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan davlat o‘z hududida amalga oshirayotgan faoliyati boshqa davlat hududiga yoki atrof-muhit obyektlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bo‘lib, bunday zarar moddiy, ekologik yoki boshqa shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan davlat deganda esa, transchegaraviy zarar xavfi mavjud bo‘lgan yoki bunday xavf mavjud bo‘lgan boshqa joylarda yurisdiksiyasi yoki nazoratga ega bo‘lgan davlat yoki davlatlar tushuniladi. Yer yuzida barcha davlatlarga atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish kabi umumiy majburiyatlar yuklangan bo‘lib, ular ushbu majburiyatlarni bajarmasligi natijasida kelib chiqqan huquqbuzarliklari uchun xalqaro-huquqiy javobgarlik ham o‘rnatilgan.

2.2 Xalqaro-huquqiy javobgarlik tushunchasi va davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarlik turlari

Xalqaro-huquqiy javobgarlik – bu xalqaro huquq normalarini va o‘z xalqaro majburiyatlarini buzgan xalqaro huquq subyekti uchun kelib chiqadigan yuridik oqibatdir[2]. Bunday javobgarlik mazkur normalar va qoidalarni tiklash yoki keltirilgan zararni qoplashni ta’minlash kabi vositalar orqali amalga oshiriladi. Xalqaro huquqda subyektlarining xalqaro-huquqiy javobgarligi uchun asos sifatida, u tomonidan xalqaro huquqbuzarlik sodir etilishi hisoblanadi. Xalqaro huquqbuzarlik – bu xalqaro huquq subyektining xalqaro huquq normalari va o‘zining xalqaro majburiyatlarini buzuvchi va xalqaro huquqning boshqa subyekti zarar yetkazuvchi harakati yoki harakatsizligidir. Bunda majburiyatlar xalqaro huquq subyektining huquqqa zid harakati va yetkazilgan zarar o‘rtasidagi sababli bog‘lanish mavjud bo‘lganda kuchga kiradi. Demak, xalqaro huquq subyektarining yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararni oldini olmasligi yoki bila turib shuni ongli ravishda istagan bo‘lishi va uning oqibati mavjud bo‘lganda, ular o‘z majburiyatlarini bajarmagan hisoblanib, xalqaro-huquqiy javobgarlikka tortilishadi.[3] O‘z navbatida, davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarligi turlari ikkita bo‘lib, ular siyosiy va moddiy javobgarliklardir.

Siyosiy javobgarlik – odatda huquqbuzar davlatga nisbatan majburlov choralari qo‘llaniladi va ular moddiy javobgarlik bilan o‘zaro bog‘liq. Sanksiya siyosiy javobgarlikning eng ko‘p qo‘llaniladigan shakli hisoblanadi.

---

[1] International Law Commission, *Draft Articles on Prevention of Transboundary Harm from Hazardous Activities, with Commentaries*, in *Report of the International Law Commission on the work of its 53rd Session*, UN Doc. A/56/10 (2001).
[2] Odilqoriyev A.X., Ochilov O.X., *Xalqaro huquq*. – Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2007. – 226-228-betlar.
[3] International Law Commission. *Draft Articles on Responsibility of States for Internationally Wrongful Acts*, 2001. UN Doc. A/56/10. Available at: https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/commentaries/9_6_2001.pdf

Sanksiya deb – huquqbuzarlik sodir etgan davlatga nisbatan qo‘llaniladigan majburlov chorasiga aytiladi[4]. Sanksiyalar faqatgina og‘ir xalqaro jinoyat sodir etilganda qo‘llaniladigan majburlash shakli bo‘lib, u quyidagicha bo‘lishi mumkin:

a) davlat suverenitetini vaqtincha cheklab qo‘yish;
b) hududning bir qismini ajratib olish;
c) urushdan keyini okkupatsiya;
d) qurolli kuchlar tarkibini qisqartirish.

Moddiy (iqtisodiy) javobgarlik – davlat tomonidan moddiy zarar yetkazishga olib keluvchi xalqaro majburiyatning buzilishi bilan vujudga keladi. U professorlar X.T.Odilqoriyev va B.E.Ochilov nazarida, reparatsiya, restitutsiya, va substitutsiya shakllarida namoyon bo‘ladi.

Reparatsiya – bu moddiy zararni pul ko‘rinishida yoki tovar va xizmat ko‘rinishida qoplash demakdir.

Restitutsiya deb – urushayotgan davlat tomonidan xalqaro huquqqa zid ravishda tortib olingan va raqib hududidan olib chiqib ketilgan mulkni o‘z aslida qaytarish tushuniladi.

Bizning fikrimizcha, moddiy javobgarlikni ikki shaklga ajratish maqsadga muvofiq. Sababi, substitutsiya restitutsiyaning bir ko‘rinishi hisoblanadi. U xalqaro huquqqa zid tarzda yo‘q qilingan yoki zarar yetkazilgan mulk, bino, inshoot, tarixiy yoki madaniy buyumlarni almashtirish yoki uni o‘rnini qoplashdan iborat.

Xalqaro deliktlar uchun davlatga nisbatan retorsiya, repressaliya, satisfaksiya, restoratsiya kabi siyosiy javobgarlik shakllari qo’llanilishi mumkin.

Retorsiya deb bir davlat tomonidan boshqa bir davlatga nisbatan uning manfaatlariga ziyon yetkazgani uchun xalqaro huquqqa mos majburlov choralarini qo’llashga aytiladi. Masalan, unga nodo’stona aktni sodir etgan davlatdan elchini chaqirib olish, mamlakatga kirishni taqiqlash yoki delegatlar tashrifini bekor qilish kabilar kiradi.

Repressaliya (harbiy bo’lmagan) – bir davlatning ikkinchi davlatga nisbatan qo’llashga haqli majburlov harakatlaridir. Repressaliya bir davlat tomonidan ikinchi davlatning huquqa zid harakatlariga qarshi buzilgan huquqlarni tiklash maqsadida qo’llaniladi. Masalan, embargo qo’yish shakllarida ifodalanilishi mumkin.

Satisfaksiya — davlat tomonidan sodir etilgan xalqaro majburiyat buzilishi oqibatida boshqa davlatning sha’ni, obro‘si yoki suveren huquqlariga yetkazilgan nomoddiy zararni tan olish va bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqiy choradir. Satisfaksiya rasmiy uzr so‘rash, huquqbuzarlikni tan olish, davlatning afsus bildirish bayonoti ko‘rinishlarida bo‘lishi mumkin.

Amaliyotda **restoratsiya** deb nomlanuvchi javobgarlik shakli ham uchraydi. U huqubuzar davlat tomonidan biron-bir moddiy obyektning avvalgi holatining tiklanishini nazarda tutadi. Masalan, uning aybi bilan ifloslangan suvning avvalgi sifatini tiklash.

Xalqaro ekologik huquqda boshqa sohalarda, odatda uchramaydigan o‘ziga xos xususiyatlarni masalan, “zarar yetkazmaslik”, “tabiiy resurslar ustidan suverenitet”, “ifloslantiruvchi to‘laydi”, “ehtiyotkorlik va oldini olish” tamoyillarini o‘z ichiga oladi. Davlatlar o‘rtasidagi xalqaro ekologik huquq normasining buzilishi tufayli kelib chiqqan mojarolar aynan shunday buzilish siyosiy-hududiy chegaralardan tashqariga chiqadigan zararlarga olib kelgani uchun yuzaga keladi. Natijada, javobgarlik masalasi suverenitet va iqtisodiy rivojlanish kabi nozik masalalarga daxl qilgani uchun, huquqiy tamoyillar va normalar o‘rtasidagi ziddiyatsizlikdan foydalangan holda, mojaroni hal qilishning eng yaxshi yo‘lini topish uchun ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak[5].

3. Atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarligi masalalari

[4] Mualliflar jamoasi, *Xalqaro ommaviy huquq*. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2023. – 220-bet.

[5] Turg‘unboyev, Abrorjon Karimjon o‘g‘li. “Atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun davlatlar javobgarligining xalqaro-huquqiy masalalari.” *Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation* 2, no. 11 (November 2024). https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/view/1911/1684.

3.1 Xalqaro-huquqiy asoslar

Transchegaraviy ekologik zarar va uning salbiy ta'sir ko'rsatishi uchun xalqaro-huquqiy javobgarlik xalqaro huquqning ko'plab manbalarida mustahkamlangan. Atrof-muhitni himoya qilish va unga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ko'plab hujjatlarda belgilab qo'yilgan. Ular birin-ketinlikda tahlil qilib boriladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi xalqaro huquqning asosiy manbalaridan biri bo'lib, unda davlatlarning o'zaro munosabatlari, shuningdek, ularning huquq va majburiyatlari mustahkamlangan. BMT Nizomida ekologik masalalar bo'yicha alohida bob keltirilmagan bo'lsa-da, uning asosiy maqsad va tamoyillari mohiyatan transchegaraviy ekologik zararlarning oldini olishga qaratilgan. Nizomning 1-bobida xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xarakterdagi xalqaro muammolarni hal etishda hamkorlik qilish belgilangan[6]. Ushbu qoidalar ekologik masalalarga ham taalluqli, chunki atrof-muhitning ifloslanishi yoki transchegaraviy ekologik zarar xalqaro tinchlik va xavfsizlikka bevosita rahna solishi mumkin. Undan tashqari, atrof-muhit masalalari iqtisodiy va ijtimoiy sohalar bilan chambarchas bog'liq. Bu masalani tartibga solish mexanizmi BMT doirasida qabul qilingan boshqa hujjatlar orqali to'liq tartibga solingan.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING INSON ATROF-MUHITI BO'YICHA KONFERENSIYASI DEKLARATSIYASI (Stokgolm deklaratsiyasi, 1972-yil). Mazkur deklaratsiyani tuzishdan ko'zlangan maqsad, inson, atrof-muhitni saqlash va yaxshilashda barcha davlatlarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi umumiy qarash va tamoyillarni belgilashdan iborat[7]. Unga ko'ra, atrof-muhitni himoya qilish va yaxshilash mas'uliyati hammaning zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek, 11-moddaga ko'ra, atrof-muhit siyosati rivojlanayotgan mamlakatlarning kelajakdagi rivojlanish imkoniyatariga ham salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Ya'ni, davlatlar samarali ekologik qonunchilik qabul qilishlari va ma'lum standartlar, ustuvor maqsadlar belgilangan bo'lishi lozim. Har bir davlat ekologik siyosatini olib borish darajasi o'zaro farq qiladi. Masalan, rivojlangan davlatlarning majburiyatlari rivojlanayotgan mamlakatlarning majburiyatlaridan ko'proq bo'lishi mumkin, chunki ularning "kuchi" ancha baquvvat hisoblanadi, rivojlanayotgn davlatlar esa hali o'zini yo'lga qo'yguncha ma'lum istisnolarga ega bo'lishi mumkin. Endilikda ushbu hujjat asosida, transchegaraviy zarar yetkazgan davlatga qo'yiladigan majburiyat va javobgarlik masalalarini ko'rib chiqamiz. 13-moddada atrof-muhitga yetkazilgan zarar orqali jabr ko'rgan davlatga kompensatsiya berish bo'yicha milliy qonunchilikni ishlab chiqishlari lozimligi keltirilgan. Xususan, atrof-muhitga zarar yetkazuvchi yoki inson salomatligiga xavf tug'diruvchi faoliyat va moddalarning boshqa davlatlarga ko'chirilishini oldini olishi va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun lozim bo'lgan ehtiyot choralari ko'rilishi kerak. "Ifloslovchi to'laydi" tamoyiliga yondashgan holda, yetkazgan zarari uchun iqtisodiy jihatdan uning o'rnini qoplaydi. Ularga qo'yilgan asosiy majburiyatlardan yana biri, davlatlar boshqa mamlakatlarning atrof-muhitiga to'satdan zarar yetkazishi mumkin bo'lgan tabiiy ofatlar yoki favqulodda holatlar haqida zudlik bilan xabar berishlari kerak. Agarda transchegaraviy ekologik ta'sir ko'rsatishi mumkin faoliyat mavjud bo'lsa, bu haqida oldindan va o'z vaqtida manfaatdor davlatga xabar berishi, ular bilan ochiq maslahatlashuvlar olib borishlari lozimligi keltirilgan. Umumiy aytganda, u hujjatda davlatlar olib borayotgan faoliyati atrof-muhitga transchegaraviy zarar yetkazmasligi va bu borada ularning majburiyat va javobgarlik masalalari ochiqlandi.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING ATROF-MUHIT VA RIVOJLANISH BO'YICHA RIO DEKLARATSIYASI (1992-yil). Ushbu hujjatni tuzishdan ko'zlangan maqsad, barcha manfaatlarni hurmat qiladigan va global ekologik hamda rivojlanish tizimining yaxlitligini himoya qiluvchi xalqaro kelishuvlarga erishishdan iborat[8]. Deklaratsiyasining

[6] BMT Nizomi va Xalqaro Sud Statuti, tarjima. Toshkent: BMTning O'zbekistondagi Axborot Markazi va O'zbek Xalqaro Huquq Assotsiatsiyasi, 2008.
[7] United Nations Conference on the Human Environment, *Stockholm Declaration on the Human Environment*, Stockholm, June 5–16, 1972, United Nations, https://www.un.org/en/conferences/environment/stockholm1972.
[8] United Nations Conference on Environment and Development, *Rio Declaration on Environment and Development*, Rio de Janeiro, June 3–14, 1992, United Nations,

2-tamoyiliga asosan, davlatlar o‘z tabiiy resurslaridan foydalanishda BMT Nizomi va xalqaro huquq tamoyillariga muvofiq suveren huquqqa ega biroq, ular o‘z yurisdiksiyasi yoki nazorati ostidagi faoliyat boshqa davlatlar yoki xalqaro hududlarning atrof-muhitiga zarar yetkazmasligini ta’minlash uchun mas’uldirlar**.** Shuningdek, davlatlar standartlar, maqsadlar va ustuvor yo‘nalishlar har bir mamlakatning rivojlanish va ekologik sharoitlariga mos bo‘lgan samarali ekologik qonunchilik normalarini qabul qilishlari lozim. Stokgolm deklaratsiyasi kabi, bu hujjatda ham quyidagilar belgilangan:

1) davlatlar atrof-muhitga zarar yetkazuvchi yoki inson salomatligiga xavf tug‘diruvchi faoliyat va moddalarning boshqa davlatlarga ko‘chirilishini oldini olishda hamkorlik qilish;
2) davlatlar ifloslanish yoki boshqa ekologik zarar yetkazish mumkin bo‘lgan davlat yoki davlatlarga kompensatsiya berish bo‘yicha milliy qonunchilik normalarini ishlab chiqish;
3) davlatlar boshqa mamlakatlarning atrof-muhitiga to‘satdan zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan tabiiy ofatlar yoki favqulodda holatlar haqida zudlik bilan xabar berish;
4) davlatlar transchegaraviy ekologik ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan faoliyatlar haqida oldindan va o‘z vaqtida ma’lumot berishlari, manfaatdor mamlakatlar bilan dastlabki bosqichda halol va ochiq maslahatlashuvlar olib borish;
5) davlatlar atrof-muhitga oid barcha nizolarni tinch yo‘l bilan va BMT Nizomiga muvofiq hal etish.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING IQLIM O‘ZGARISHI TO‘G‘RISIDAGI DOIRAVIY KONVENSIYASI DOIRASIDAGI PARIJ BITIMI (2015-yil). Ushbu bitimning asosiy maqsadi global harorat oshishini sanoatgacha bo‘lgan darajadan 2°C dan past darajada ushlab turish va iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlariga nisbatan barqarorlikni oshirishdan iborat. Parij bitimi, ayniqsa, uning 8-moddasi, davlatlarga atrof-muhitga yetkazilgan transchegaraviy zarar uchun bevosita huquqiy javobgarlik yuklamaydi. Boshqacha aytganda, bitim davlatlarni avtomatik ravishda kompensatsiya to‘lashga yoki javobgar deb hisoblashga majbur qilmaydi, lekin iqlim o‘zgarishi oqibatlari, zarar, yo‘qotishlar va hamkorlik mexanizmlarini taribga solidi. Shu bilan birga, 8-modda global miqyosda hamkorlik, yordam ko‘rsatish va xavflarni boshqarish tamoyillarini mustahkamlaydi, ya’ni iqlim o‘zgarishidan kelib chiqadigan salbiy oqibatlarni siyosiy, ilmiy va institutsional vositalar orqali hal etishga yo‘naltiradi[9]. Bitimda ushbu tamoyil “**hamkorlik orqali mas’uliyat**” (responsibility through cooperation) yondashuvi sifatida namoyon bo‘ladi, ya’ni davlatlar o‘zaro hamkorlik qilish orqali yo‘qotish va zararlarni kamaytirish va ularga javob berish mexanizmlarini amalga oshiradilar.

Yuqoridagi hujjatlar asosida har bir davlatga yukaatilgan majburiyatlarni tahlil qilib chiqdik. Ushbu majburiyatlarni buzish 2001-yil BMT Xalqaro huquq komissiyasi tomonidan qabul qilingan “Davlatlarning xalqaro-huquqqa xilof qilmishlari uchun javobgarligi to‘g‘risidagi moddalar loyihasi (izohlar bilan)” 1 va 2-moddalariga ko‘ra, davlatni xalqaro-huquqiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi. Shuningdek, davlat o‘zining xalqaro-huquqqa xilof qilmishi bilan yetkazilgan zararni to‘liq qoplashi shartligi va zarar moddiy hamda ma’naviy zararni o‘z ichiga olishi ko‘rsatilgan. Zarar restitutsiya, kompensatsiya va satisfaksiya shakllarida qoplanilishi mumkin.[10]

3.2 Milliy-huquqiy asoslar (O‘zbekiston misolida):

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan beri xalqaro atrof muhitni muhofaza qilish borasida faol qatnashib, har yili atrof-muhit holatini yaxshilash, tabiiy resurslardan barqaror foydalanishni rag‘batlantirish va ekologik tizimni takomillashtirishga qaratilgan dastur va loyihalarni ishlab chiqib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish

https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/generalassembly/docs/globalcompact/A_CONF.151_26_Vol.I_Declaration.pdf.

[9] **UNFCCC.** (2015). *Paris Agreement.* United Nations Framework Convention on Climate Change. Retrieved from https://unfccc.int/files/essential_background/convention/application/pdf/english_paris_agreement.pdf

[10] International Law Commission. *Draft Articles on Responsibility of States for Internationally Wrongful Acts*, 2001. UN Doc. A/56/10. Available at: https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/commentaries/9_6_2001.pdf

konsepsiyasida 2030-yilgacha atrof-muhit obyektlarini saqlash va sifatini ta‘minlash bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlar nazarda tutilgan:

- atmosfera havosi, suvlar, yerlar, tuproqlar, er osti boyliklari, biologik xilma-xillik, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning antropogen ta’siridan va boshqa salbiy ta’sirlardan saqlanish va sifatini ta‘minlash;
- eng kam ekologik xavf tug‘diradigan materiallar, mahsulotlar, ishlab chiqarish va boshqa obyektlardan ustuvor foydalanish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni kengaytirish;
- zaharli kimyoviy va radioaktiv moddalardan ekologik toza foydalanishni ta’minlash;
- chiqindilarni boshqarishning ekologik toza tizimini takomillashtirish;
- aholining ekologik madaniyatini shakllantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat organlari faoliyatining shaffoflik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish[11].

Transchegaraviy zarar maslasini tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida bevosita “transchegaraviy zarar” degan atama har doim ham ishlatilmaydi, biroq davlatning ekologik xavfsizlikni ta’minlash, zarar yetkazmaslik va javobgarlik choralarini belgilashga doir normalar mavjud. Eng muhim normativ-huquqiy hujjat bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida davlat atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni belgilanib qo‘yishi bu davlat majburiyatining konstitutsiyaviy asosi ekanligini bildiradi. O‘zbekiston uchun Parij bitimi u tomonidan ratifikatsiya qilingani uchun majburiy xalqaro shartnoma hisoblanadi. Shu sababli, davlat o‘z qonunchiligini xalqaro shartnomalar bilan uyg‘unlashtirgan.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra atrof-muhitga transchegaraviy zarar yetkazilishi yoki ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holatlar bir nechta hujjatlarda o‘z aksini topgan. Masalan, yuqoridagi xalqaro hujjat tamoyillari asosida quyidagi normalar keltirilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunining 28-moddasida, transchegaraviy zarar yetkazishga qodir bo‘lgan transchegaraviy gidrotexnika inshootlarida favqulodda vaziyat yuzaga kelganligi yoki yuzaga kelishi mumkinligi to‘g‘risida chet davlatlarni xabardor qilish qilishi kerakligi ko‘rsatilgan[12]. Shuningdek, transchegaraviy yetkazilgan zararning o‘rni O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida va xalqaro shartnomalarida belgilangan tartibga qoplanishi ham keltirilgan.

4. Sudlov organlari amaliyoti

Endilikda, atrof-muhitga transchegaraviy zarar yetkazganlik uchun xalqaro-huquqiy javobgarlik masalasi bo‘yicha tarixdagi birinchi va eng muhim xalqaro arbitraj ishi bo‘lgan “Trail Smelter” ishi bilan tanishib chiqamiz. Bu ish 1935-1941-yillar davomida AQSH va Kanada tomonidan tuzilgan maxsus arbitraj tribunal tomonidan ko‘rib chiqilgan. Trail Smelter – Kanada hududida joylashgan xususiy metall eritish zavodi bo‘lib, u katta miqdorda havoga sulfur dioksid gazini chiqarib, shamol orqali AQSHning Vashingon shtati hududiga zarar yetkazgan[13]. Zarar natijasida dehqonchilik yerlari, o‘rmonlar, tabiat va o‘sha yerdagi aholining iqtisodiy manfaatlariga jiddiy shikast yetgan. Ushbu zarar transchegaraviy xarakterga ega bo‘lgani uchun AQSH hukumati Kanadaga nisbatan diplomatik shikoyat bildirib, masalani tinch yo‘l bilan hal etish maqsadida tomonlar o‘zlarining 1935-yilgi kelishuv asosida tuzilgan maxsus va muvaqqat bo‘lgan arbitraj tribunaliga murojaat etadilar. Aslida ziddiyatlar 1925-1930-yillar davomida zavod ishlab chiqarish hajmi kengayganligidan boshlangan. AQSH hukumatining noroziligi sabab, ular bu masalani hal qilish va zararni o‘rnini

[11] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 30.10.2019, O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, https://lex.uz/docs/-4574008.

[12] O‘zbekiston Respublikasi. Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida qonuni, 30 avgust 2023-yil, O‘RQ-865-son. Lex UZ. https://lex.uz/uz/docs/-6588801.

[13] Trail Smelter Arbitration (United States of America v. Canada), Awards of 16 April 1938 & 11 March 1941, *Reports of International Arbitral Awards*, Vol. III, pp. 1905-1982, United Nations, Office of Legal Affairs, 2006, available at: https://legal.un.org/riaa/cases/vol_iii/1905-1982.pdf.

qoplash uchun muzokaralar olib boradi. Natijada, ular o‘rtasida “Trail Smelter arbitraj konvensiyasi” imzolanib, u asosida ishni ko‘rib chiqib, baholash uchun xalqaro arbitraj tribunal tuziladi. Arbitraj sudi surishtiruv orqali haqiqatdan ham Trail Smelter AQSH hukumatiga transchegaraviy zarar yetkazgan deb baholaydi. Sababi, ifloslanish manbai bir davlat hududida joylashgan, lekin uning salbiy oqibatlari boshqa davlat hududida yuz bergan. Tribunal ushbu zavod faoliyati ustidan yetarlicha nazorat o‘rnatilmaganligi uchun Kanada davlatini javobgar deb topadi va unga nisbatan quyidagilar yuklatiladi:

1. Trail Smelter zavodi boshqa davlat hududiga zarar yetkazmaydigan darajada ifloslashni to‘xtatishi;
2. Kanada AQSHga yetkazgan zarari uchun moddiy kompensatsiya ($350 000 miqdori atrofida) to‘lashi;
3. Kelajakda ham zavod faoliyati xalqaro-ekologik me’yorlarga muvofiq bo‘lishi ustidan nazorat o‘rnatish.

Tribunal bu qarorni “davlat hududida sodir bo‘lgan har qanday faoliyat, agar u boshqa davlatga zarar yetkazsa, u faoliyat uchun shu davlat javobgardir” degan qoida va prinsip asosida chiqaradi. Shuning uchun ham, Trail Smelter zavodi xususiy bo‘lishiga qaramasdan, Kanada davlati o‘z yurisdiksiyasi ostida bo‘lgan faoliyatni nazorat qilmaganligi va boshqa davlat hududiga zarar yetkazishning oldini olmaganligi uchun xalqaro javobgarlikka tortiladi.

Aynan shu ish xalqaro-huquqda boshqa davlatlarga transchegaraviy talofat yetkazmaslik va ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun bir qancha xalqaro hujjatlar yaratishga turtki bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi, chunki ko‘rilgan ishda ilgari surilgan qoidalar keyinchalik xalqaro hujjatlarda o‘z tasdig‘ini topgan.

5. Xulosa

Atrof-muhitga transchegaraviy zarar yetkazilishi bilan bog‘liq xalqaro-huquqiy javobgarlik masalasi ilmiy munozaralarda turli yondashuvlarni yuzaga keltiradi. Tadqiqot davomida ushbu yondashuvlar tanqidiy tahlil qilinar ekan, amaldagi xalqaro-huquqiy normalarning yetarliligi va ularning amaliy qo‘llanish darajasi bir qator murakkabliklarni namoyon etishi aniqlandi.

Birinchidan, xalqaro ekologik huquqda mustahkamlangan “zarar yetkazmaslik”, “ehtiyotkorlik”, “oldini olish” va “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyillari nazariy jihatdan puxta asoslangan bo‘lsa-da, ularning majburiy kuchga ega bo‘lmagan deklarativ talqini ko‘plab tanqidlarning markazida turadi. Tanqidiy yondashuv shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab xalqaro hujjatlar davlatlar uchun qat’iy javobgarlik mexanizmlarini belgilab bermagan, bu esa ekologik nizolarning samarali hal qilinishiga to‘sqinlik qiladi.

Ikkinchidan, xalqaro jinoyat sudlari, arbitraj tribunalari va boshqa sudlov organlarining pozitsiyalari bevosita huquqiy normalarning mazmunini ochishda muhim ahamiyatga ega. Trail Smelter ishi tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat o‘z hududida sodir bo‘layotgan faoliyat uchun transchegaraviy zarar yuzaga kelgan taqdirda javobgar hisoblanadi. Bu holat xalqaro huquqda davlat nazoratining yetarliligi masalasini keskin o‘rtaga qo‘yadi. Shu bilan birga, boshqa ekologik ishlar bo‘yicha sud amaliyoti ham ko‘p hollarda siyosiy omillar ta’sirida shakllanib, huquqiy mexanizmlarning zaifligini namoyon etadi.

Uchinchidan, xalqaro-huquqiy normalar talqinida ayrim huquqshunoslar davlatlarning suverenitetini cheklamaslik nuqtai nazarini ilgari sursa, boshqalar ekologik xavfsizlik global ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli davlatlarning mas’uliyatini kengaytirish zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu qarama-qarshi yondashuvlar tanqidiy tahlil qilinganda, mavjud normalar o‘rtasida ziddiyatlar borligi va ularni amaliyotda qo‘llashda yagona standart mavjud emasligi ma’lum bo‘ladi.

Yakuniy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, transchegaraviy ekologik zarar bo‘yicha xalqaro-huquqiy tartibot hali to‘liq takomillashmagan. Normativ-huquqiy bazaning deklarativligi, sanksiyalar mexanizmining kuchsizligi, kompensatsiya tizimining aniq standartlarga ega emasligi hamda sud amaliyotining siyosiy ta’sirlarga moyilligi mavjud muammolarning asosiy omillaridir. Shu sababli, davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro ekologik huquq tamoyillarini majburiy kuchga ega

qoidalar sifatida mustahkamlash, sud organlarining vakolatlari va huquqiy standartlarini aniqlashtirish – ekologik xavfsizlikni ta’minlashning eng muhim yo‘nalishlari bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **BMT Nizomi va Xalqaro Sud Statuti.** Tarjima. Toshkent: BMTning O‘zbekistondagi Axborot Markazi va O‘zbek Xalqaro Huquq Assotsiatsiyasi, 2008.
2. **UNFCCC.** *Paris Agreement.* United Nations Framework Convention on Climate Change, 2015. https://unfccc.int/files/essential_background/convention/application/pdf/english_paris_agreement.pdf
3. **International Law Commission.** *Draft Articles on Prevention of Transboundary Harm from Hazardous Activities, with Commentaries.* In: *Report of the International Law Commission on the Work of its 53rd Session.* UN Doc. A/56/10, 2001.
4. **United Nations Conference on Environment and Development.** *Rio Declaration on nvironment and Development.* Rio de Janeiro, 3–14 June 1992. United Nations. https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/generalassembly/docs/globalcompact/A_CONF.151_26_Vol.I_Declaration.pdf
5. **United Nations Conference on the Human Environment.** *Stockholm Declaration on the Human Environment.* Stockholm, 5–16 June 1972. United Nations. https://www.un.org/en/conferences/environment/stockholm1972
6. **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi** (yangi tahrir). 30.04.2023. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi — https://lex.uz
7. **Trail Smelter Ar8bitration (United States of America v. Canada).** Awards of 16 April 1938 & 11 March 1941. *Reports of International Arbitral Awards*, Vol. III, 1905–1982. United Nations, Office of Legal Affairs, 2006. https://legal.un.org/riaa/cases/vol_iii/1905-1982.pdf
O‘zbekiston Respublikasi. *Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida* Qonun, 30 avgust 2023-yil, O‘RQ-865-son. https://lex.uz/uz/docs/-6588801
8. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining** “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmon, 30.10.2019. *O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.* https://lex.uz/docs/-4574008
9. **Odilqoriyev A.X., Ochilov O.X.** *Xalqaro huquq.* Toshkent: Adolat nashriyoti, 2007. – 226–228-betlar.
10. **Mualliflar jamoasi.** *Xalqaro ommaviy huquq.* Toshkent: TDYU nashriyoti, 2023. – 220-bet.
11. **Turg‘unboyev, Abrorjon Karimjon o‘g‘li.** “Atrof muhitga yetkazilgan zarar uchun davlatlar javobgarligining xalqaro huquqiy masalalari.” *Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation* 2, no. 11 (2024). https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/view/1911/1684